

Jahon kimyo sanoati xabarlari: Indorama dunyodagi birinchi bioparaksiloldan tayyorlangan PET-idishlarni ommaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi

// 01.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-xabarlari-indorama-dunyodagi-birinchi-bi>



Indorama dunyodagi birinchi bioparaksiloldan tayyorlangan PET-idishlarni ommaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi

Indorama kompaniyasi Suntory, ENEOS, Mitsubishi va Neste kompaniyalari bilan hamkorlikda tijorat maqsadlarida foydalanish uchun dunyodagi birinchi bio-PET idishni chiqaradi. Idish chiqindi ya'ni, ishlatilgan o'simlik yog'idan olingan sertifikatlangan bio-paraksiloldan tayyorlanadi.

Noyabr oyidan boshlab Suntory asta-sekin bu turdagi qadoqlarni Yaponiya bozoriga kiritadi. Mazkur hamkorlik ichimliklar uchun mo'ljallangan ushbu PET-idishlardan taxminan 45 million donasini sotuvga chiqarish imkonini beradi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati